

**INTERNATIONAL CONFERENCE**  
**“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”**  
**September 25, 2025**

**SULAYMON BOQIRG‘ONIY PEDAGOGIK G‘OYALARIDAN FOYDALANISHNING  
PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

*Avazova Mohinur Tohirovna*

*Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, UrDU psixologi.*

*E-mail: mohinuravezova6@gmail.com Telefon: +998942308788*

**Annotatsiya:** Shaxs kamolotga erishishida tarbiyaning ro‘li katta. Insonning ma‘naviy yetukligi, axloqiy pokligi tarbiyaning poydevoridir. Shaxs ma‘naviy immunitetini shakllantirishda undagi rostgo‘ylik, halollik, sabr-toqatlilik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Yoshlarni ilm olishga ma‘rifatli bo‘lishga da‘vat qilish ham Boqirg‘oniyning pedagogik g‘oyalaridan biridir. Uning yondashuvi asosida ilm olishga da‘vat qilish, bilim olishni diniy va insoniy majburiyat sifatida targ‘ib qilish, yoshlarda ilmga qiziqishni uyg‘otish orqali ularning mustaqil fikrlash, tafakkur qilish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy tarbiya tamoyillaridan biridir. Aynan zamonaviy ta‘lim tizimi ham yoshlarda tayyor bilimlarni o‘z lashtirishni emas, balki ularda mustaqil fikrlashni, tafakkur qilishni va aynan diniy ma‘lumotlarni, diniy qadriyatlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishni talab qilmoqda.

Shaxsni ma‘naviy va intellektual yetuk shaxs sifatida shakllantirishning ham muhim jihatlaridan biri yoshlarda ilm olishga qiziqish uyg‘otish, uni o‘z ustida ishlashga, mustaqil o‘qib izlanishga undashdir. Boqirg‘oniyning pedagogik g‘oyalaridan foydalanish asnosida shaxsning mehr-oqibatlilik, bag‘rikenglik, vatanparvarlik kabi tarbiyaning muhim yo‘nalishlariga ham e‘tibor berish zarur.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim-tarbiya, pedagogik mahorat, nafsni jilovlash, kreativlik, axloqiy tarbiya, vijdon, rostgo‘ylik, halollik.

**PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF USING THE PEDAGOGICAL IDEAS OF  
SULAYMON BAKIRGANI**

*Avazova Mokhinur Tohirovna*

*psychologists of USU*

*E-mail mohinuravezova6@gmail.com Tel: +998942308788*

**Abstract:** Education plays a great role in the development of a person. Spiritual maturity and moral purity of a person are the foundation of education. In forming a person's spiritual immunity, special attention should be paid to the development of such qualities as truthfulness, honesty, patience, and hard work.

Encouraging young people to be enlightened in acquiring knowledge is also one of Bakirgani's pedagogical ideas. Based on his approach, encouraging young people to acquire knowledge, promoting knowledge as a religious and human obligation, and developing their independent thinking, reflection, and analytical skills by arousing interest in science are one of the main principles of education. It is precisely the modern education system that requires young people not to master ready-made knowledge, but to develop independent thinking, reflection, and the ability to analyze religious information and religious values.

One of the important aspects of shaping a person as a spiritually and intellectually mature person is to arouse interest in learning in young people, to encourage them to work on themselves, to study and research independently. When using Bakyrqoni's pedagogical ideas, it is also necessary to pay attention to important areas of personal upbringing such as kindness, tolerance, and patriotism.

**Keys words:** education, pedagogical skills, self-control, creativity, moral education, conscience, honesty, integrity

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИДЕЙ СУЛАЙМОНА БАКИРГАНИ

*Авазова Мохинур Тохировна*

*психологи УрГУ*

*E-mail: [mohinuravezova6@gmail.com](mailto:mohinuravezova6@gmail.com) Tel: +998942308788*

**Абстрактный:** Образование играет огромную роль в развитии личности. Духовная зрелость и нравственная чистота человека являются основой воспитания. В формировании духовного иммунитета особое внимание следует уделять развитию таких качеств, как правдивость, честность, терпение и трудолюбие.

Поощрение сознательного стремления молодёжи к познанию также является одной из педагогических идей Бақыргани. Согласно его подходу, поощрение молодёжи к познанию, пропаганда знаний как религиозной и общечеловеческой обязанности, развитие самостоятельного мышления, рефлексии и аналитических навыков через пробуждение интереса к науке являются одними из основных принципов образования. Именно современная система образования требует от молодёжи не усвоения готовых знаний, а развития самостоятельного мышления, рефлексии и способности анализировать религиозную информацию и религиозные ценности.

Одним из важных аспектов формирования духовно и интеллектуально зрелой личности является пробуждение у молодёжи интереса к обучению, поощрение её к самостоятельным занятиям, самостоятельным исследованиям и самостоятельным исследованиям. При использовании педагогических идей Бақыргани необходимо также уделять внимание таким важным направлениям воспитания личности, как доброта, толерантность, патриотизм.

**Ключевые слова:** образование, педагогическое мастерство, самоконтроль, творчество, нравственное воспитание, совесть, честность, добросовестность.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. PF-60-son farmoni, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilanganidek yoshlarni ma‘naviy tahdidlardan himoya qilish, ma‘naviy dunyoqarashini shakllantirish ularni axloqiy jihatdan tarbiyalash muhim. Mutafakkirlarning asarlarini o‘rganish, tahlil qilish va yoshlarimiz ta‘lim-tarbiya jarayonida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk allomlarimiz asarlarida shaxs kamolotini yuksaltirish, odob-axloq na‘munalarini tarkib toptirish, irodaviy sifatlarini shakllantirishimiz, ularni halol mehnat bilan kun ko‘rishga yo‘g‘rilgan g‘oyalarni ko‘rishimiz mumkin.[1] Sulaymon Boqirg‘oniyning asarlari va uning faoliyati jamiyatni ma‘naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirishga qaratilgan bo‘lib, inson, jamiyat, adolaltilik, halollik va jamiyatga doir

g‘oyalarini ilgari surgan va ularning amalda qaror topishi uchun kurashgan. Uning o‘z zamonida ilgari surgan g‘oyalari, ijtimoiy qarashlari, hozirgi davr uchun ham dolzar ahamiyat kasb etadi. Uning diniy-axloqiy va ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlari, ijtimoiy g‘oyalari yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash jarayonida katta amaliy ahamiyatga ega. Sulaymon Boqirg‘oniyning pedagogik g‘oyalarida shaxs tarbiyasida quyidagi jihatlarni ko‘ramiz.

- Axloqiy tarbiya
- Ilm va ma‘rifat
- Bag‘rikenglik, mehr-muhabbat
- Mehnat tarbiyasi

Shaxs kamolotga erishishida tarbiyaning ro‘li katta. Insonning ma‘naviy yetukligi, axloqiy pokligi tarbiyaning poydevoridir. Shaxs ma‘naviy immunitetini shakllantirishda undagi rostgo‘ylik, halollik, sabr-toqatlilik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratish lozim.

**Adabiyotlar tahlili va metod** So‘nggi yillarda ota-bobolarimiz merosiga, milliy qadriyatlarimizga alohida e‘tibor va diqqat qaratila boshladi. Chunki farzand tarbiyasida eng yaxshi usul ota-bobolarimiz o‘g‘itlari, ma‘rifatli qarashlari, komil insoni tarbiyasidagi harakatlari bugungi zamon yoshlar tarbiyasida foydalidir. Sulaymon Boqirg‘oniy tarjimai holiga oid ma‘lumotlar juda oz. Ali Safiynng “Rashhot”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Mufti Zinda Alining “Samarot ul-mashoyih” tazkirlarida ma‘lumotlar berilgan. [7].

**Muhokama** Yoshlarni ilm olishga ma‘rifatli bo‘lishga da‘vat qilish ham Boqirg‘oniyning pedagogik g‘oyalaridan biridir. Uning yondashuvi asosida ilm olishga da‘vat qilish, bilim olishni diniy va insoniy majburiyat sifatida targ‘ib qilish, yoshlarda ilmga qiziqishni uyg‘otish orqali ularning mustaqil fikrlash, tafakkur qilish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy tarbiya tamoyillaridan biridir. Aynan zamonaviy ta‘lim tizimi ham yoshlarda tayyor bilimlarni o‘z lashtirishni emas, balki ularda mustaqil fikrlashni, tafakkur qilishni va aynan diniy ma‘lumotlarni, diniy qadriyatlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishni talab qilmoqda. Boqirg‘oniyning pedagogik g‘oyalaridan foydalanishning amaliy-pedagogik jihatlarni quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

1. Ta‘lim-tarbiya jarayonida Boqirg‘oniy g‘oyalariga tayangan holda axloqiy, ma‘naviy-ma‘rifiy mashg‘ulotlarni tashkil etish. Bu mashg‘ulotlar orqali talaba-yoshlarning rostg‘oylik, sabr-toqat va halollik kabi milli-ma‘naviy qadriyatlarga o‘rgatish samaralidir.
2. Zamonaviy ta‘limda o‘quvchilarni amaliy mashg‘ulotlarga jalb qilish.
3. Yoshlarning mustaqil fikrlash va savol-javob asosida bilm olishini rag‘batlantirish.
4. Ta‘lim jarayonida ilm-fan va diniy qadriyatlar uyg‘unligini ta‘minlash.

Sulaymon Boqirg‘oniyning pedagogik qarashlarida asosan ilm va diniy e‘tiqodning uyg‘unligini ko‘ramiz. Bugungi kunda ham yoshlarning ta‘lim-tarbiyaviy jarayonida dunyoviy va diniy ma‘rifatni uyg‘unlashtirish orqali ko‘z langan pedagogik natijaga erishish mumkin. Boqirg‘oniyning pedagogik qarashlarini o‘rganar ekanmiz u o‘zing hikmatlarida islom dinini, shariat va tariqat qoidalarini targ‘ib qilgan. Sulaymon Boqirg‘oniy o‘z o‘gitlarida davriga xos insonlarning ijtimoiy hayotda tengsizligi, adolatsiz bo‘lishi va boshqa illatlar uchun javobgar shaxslarni u dunyo azoblari dahshatini eslatish va bu orqali tarbiyalashga ham intiladi. Insofi yo‘q va imoni yo‘q amaldorlar, yomon ishlar bilan shug‘ullanuvchi odamlar, xaromxo‘r, nodon va johillar hamda bosqinchi, talonchilarni fosh etadi. [14]

**Natijalar.** Boqirg‘oniyning boy merosidan oqilona foydalanish ta‘lim mazmunini boyitish va didaktik imkoniyatlarni ochadi. Uning asarlaridagi ilm, axloq, halollik, sabr, mehnarsevarlik, rostgo‘ylik, nafsni jilovlash kabi mavzular ta‘lim mazmunini boyitishga xizmat qilsa, uning hikmatlari orqali diniy va madaniy qadriyatlarni anglash, milliy, ma‘naviy qarashlarni shakllantirish, ijtimoiy faollik

sifatlarini rivojlantirish imkonini ko‘ramiz. Boqirg‘oniyning pedagogik qarashlaridan foydalanishning yana bir omillaridan biri yoshlarning mustaqil fikrlash, tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlaridir. Boqirg‘oniy asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar, hikmatlar yoshlarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda, o‘z fikrini asoslab berish ko‘nikmasini shakllantirishda va ijtimoiy hayotda mustaqil qaror qabul qilishi, muommolarini mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini oshirish imkoniyatlarini beradi. Mashg‘ulotlar jarayonida axloqiy mavzular yuzasidan kichik suhbatlar debatlar tashkil etish orqali to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish mumkin. O‘quvchilarda faollik va ijodkorlikni rivojlantirishda Boqirg‘oniy hikmatlarini o‘qish, hikmat va maqollariga asoslanib, insho yozish, suhbatlarda o‘z nuqtai nazari bilan qatnashish orqali yoshlarda ijodiy yondashuvni rivojlantirish mumkin. Bugungi kun yoshlarida o‘z fikrini asoslash, ma‘lumotlarni filter kabi tahlil qilishni rivojlantirish orqali ularni turli xil yot g‘oyalar ta‘siriga tushub qolishdan, “ommaviy madaniyat” dan ximoya qilishimiz mumkin. Yoshlarning tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzar masaladir. Boqirg‘oniyning pedagogik qarashlari uning hikmatlaridan foydalanish natijasida yoshlarda g‘oyalarni solishtirish, asosiy fikrni ajratib olish, o‘z fikrini izohlash, muommoli vaziyatlarga yechim topa olish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Bunda yoshlarining mantiqiy tafakkuri, mustaqil qaror qabul qila olishi, tanqidiy fikrlash salohiyatini oshishiga erishish mumkin. Chunki bugun tahlil davri insonlardan tahliliy fikrlashni talab qilmoqda.

Boqirg‘oniy hikmatlaridan ta‘lim jarayonida maqsadli foydalanish orqali yoshlarning tahlil qilish ko‘nikmalarini oshirishi, shu bilan birga jamiyat taraqqiyoti uchun jon kuyduradigan, fidoyi, ma‘suliyatli, ongli fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash imkonini beradi. Boqirg‘oniyning g‘oyalaridan foydalanib milliy g‘urur va ma‘naviy qadriyatlar asosida fikrolovchi, ijtimoiy hayoda faol, yoshlarni tarbiyalash imkoni yaratilmoqda.

**Xulosa.** Yoshlarning ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlari, dunyoqarashlari ajdodlarning merosi va xalqimizning madaniy-ma‘naviy hamda intellektual boyliklari insoniyat tafakkurining eng yaxshi namunalari o‘zlashtirish asosida rivojlanadi. Shaxsning dunyoqarashi intellektual hamda hissiy, axloqiy bilish jarayonida rivojlanadi. Pedagogik nuqtai nazardan yondashganda ta‘lim oluvchilar, o‘qib o‘rganish, bilish faoliyati bilan shug‘ullanganda, ularning dunyoqarashi, tafakkurida o‘zgarishlar kuzatiladi. Buning natijasida esa amaliy faoliyat ham rivojlanadi. Sulaymon Boqirg‘oniy yosh avlodning bilim olib, uni chuquq o‘zlashtirishni va ezgulik yo‘lida sarflashga da‘vat qilgan. Shuning uchun ham uning g‘oyalarida bunyodkorlik, tinchlik, mehantsevarlik, ezgulik g‘oyalari tashkil qilgan. Uning nuqtai nazarida insonda ezgu maqsadlarining vujudga kelishi asosida bunyodkorlikga undovchi harakatlar qilishiga undaydi. Sharq mutafakkirlarimizning xususan Sulaymon Boqirg‘oniyning ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlarida talaba-yoshlarning ma‘naviy-axloqiy, intellektual kamlotini oshirishga undaydigan didaktik fikrlar va yondashuvlarining ahamiyatli ekanini ko‘ramiz.

Sulaymon Boqirg‘oniyning ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlari ta‘lim-tarbiya jarayoniga maqsadli ravishda joriy etish talaba-yoshlarning aqliy, ma‘naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun bugungi kunda Boqirg‘oniyning asarlarini chqur o‘rganish zamonaviy ta‘lim asosida o‘quvchilarga yetkazish muhim vazifa xisoblanadi. Bugungi kunda komil inson masalalarini tarbiyaviy masalalari orqali ko‘rishimiz va aynan tarbiya orqali komillikka erishishini ko‘ramiz. Tarbiya insonning axloqiy-estetik jihatdan shakllanishida ta‘lim-tarbiya ishlarini doimiy ravishda uzulksiz bajarishni talab etadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori
2. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy . Hikmatlar (nashrga tayyorlovchi E.Ochilov) T., 2013
3. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Б. 40; Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. (Ҳикматлар куллийети). –Т.: “O‘zbekiston” НМИУ, 2011.
4. Eshmuamedova, M.(2020). Сулаймон Бақирғаний, Milli Kultür Araştırmaları Dergisi, Cilt4, Sayı2, Gönderim Tarihi: 17 Aralık 2020 / Kabul Tarihi: 20 Aralık 2020.
5. Nayitmetov A. Hakim ota dostonlari. Tafakkur jurnali. 2003-yil
6. I.Naqul, S.Rafiddin “Sulaymon Boqirg‘oniy. Boqirg‘on kitobi”. T-yozuvchi, 1991 y.
7. Umrboy Emberganov, Jobbergan Shomuradov “Sulaymon Bogirg‘oniy (Hakim ota)”- Toshkent 2015 y
8. Улуғ мутасаввуф: Шайх Нажмиддин Кубро таваллудининг 860 йиллиги муносабати билан: Метод.-библиогр. қўлл. / Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси; Тузувчи М.Матмурадова; Муҳаррир Х. Маматраимова; Масъул муҳаррир О.Қиличбоев.- Т.: Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2005.
9. Тарикат Ясавийа и Крым. Сулейман Бақыргани: дастаны и хикматы М. Государственный республиканский центр русского фольклора, 2015.
10. Turkiy adabiyot durdonlari Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy –“O‘zbekiston”- Toshkent 2022 To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan.
11. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/sulaymon-boqirg-oniy-xii-asr-1186>
12. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/sulaymon-boqirgoniy-sherlar-hikmatlar.html>
13. <https://zamaxshariy.uz/12782/>
14. <https://kitobxon.com/oz/forgot>